

**JADIDCHILIK HARAKATINING VUJUDGA KELISHI**

*Gulnoza Parpiyeva Xaitboyevna*

*Jalaquduq tumani 40-umumiy o'rta ta'lim maktabi*

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada Turkistonda vujudga kelgan muhim islohotchilik harakati jadidchilikning paydo bo'lishi va ta'siri, Jadidchilik bilan bog'liq bo'lgan asosiy shaxslar va muassasalar, jumladan, Ismoil G'aspirali, Abdurauf Fitratlar va ularning jadid maktablari, gazeta va madaniyat tashkilotlari tashkil etilishiga qo'shgan hissalarini, jadidchilikning asosiy tamoyillari to'g'risida to'liq bayon qilingan.*

***Kalit so'zlar:** jadidchilik, modernizatsiya, madaniy tiklanish, milliy o'ziga xoslik, siyosiy islohotlar, ma'rifiy-ma'naviy meros.*

**Kirish**

Ma'lumki, jamiyatni ma'naviy-ma'rifiy yangilashdan maqsad qilingan asosiy maqsad - yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq erkinligi va tinchliligiga erishish, komil insonni tarbiyalash, ijtimoiy hamkorlik, diniy bag'rikenglik kabi ko'pdan-ko'p asosiy masalalardan iborat. Bizga aniqki, tarixda ko'pgina mamlakatlar va sulolalar hukm surgan. Ular ma'lum vaqtda o'zlarini ma'rifiy-ma'naviy merosini qoldirgan. Shuningdek, O'rta Osiyoni Chor Rossiyasi istilo qilganidan so'ng yerlik aholining moddiy va ma'naviy madaniyatiga zarba bera boshladilar. Millat ma'naviyati va madaniyatini saqlab qolish va uni yanada yuksaltirish uchun jadidchilar olib borgan faoliyatni o'rganish manbalar, hujjatlar yordamida xolisona ob'ektiv tahlil qilingandagina oydinlik kiritish mumkin.

### **Adabiyotlar tahlili va metodologiya**

Jadidchilik rus mustamlaka siyosatiga qarshi milliy demokratik harakat hisoblanib, u o'sha vaqt Turkistondagi qoloq iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy muhitda turmush kechirayotgan xalqlarni ma'rifatlashtirish, jamiyat turmush tarzida ijtimoiy va madaniy islohotlar o'tkazish, natijasida milliy mustaqillik g'oyalarini hayotga tadbiq qilish maqsadini o'z oldiga qo'ygan edi. Jadidchilik dastlab madaniyat sohasidagi harakat sifatida faoliyat yuritgan. Bu oqim vakillari taraqqiyot uchun kurashish, turkiy tillarni takomillashtirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni o'rganish, fan yutuqlaridan foydalanish shuningdek ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashishga chaqirishgan. Keyinchalik jadidchilar panturkizm g'oyalarini targ'ib etishgan. Jadidchilik mohiyatan, dastlab, siyosiy harakat edi.

Turkiston mintaqasida jadidchilik harakati, tarqalish joyi va yo'nalishiga ko'ra uchga bo'linadi; Turkiston, Buxoro, Xorazm jadidchiligi. Turkiston jadidlari bilan Buxoro va Xiva jadidlari o'rtasida bir oz tafovut mavjud. Turkiston o'lkasidagi jadidchilikning ijtimoiy asosini ziyolilar tashkil etdi Ular chor Rossiyasi mustamlakachiligiga qarshi kurashning oldingi qatorlarida turib, chorizmning xom ashyo manbaiga aylanayotgan Turkistonning dastlab muxtor, keyin mustaqil davlat bo'lishini yoqlab chiqdilar. Turkistonda jadidchilik g'oyalari XIX asrning 90-yillaridan yoyila boshladi. Bu harakat XX asrning 30-yillari oxirlarigacha o'lka ijtimoiy-siyosiy hayotida asosiy rol o'ynadi.

### **Natijalar**

Turkistonda mustamlakachilikka qarshi milliy-ozodlik harakatlari bilan bir qatorda mahalliy aholining aksariyat qismi o'zlikni saqlab qolish, milliy madaniyatni asrash va rivojlantirishni bir kun bo'lsa ham unutmadi. O'rta Osiyoga nisbatan Rossiya imperiyasining harbiy tomondan ustunligi mahalliy aholining ochiqdan ochiq kurash olib borishiga imkon bermadi. Shuning uchun ham Vatan, millat, xalq qayg'usini tushungan kishilar, ayniqsa, ziyolilar xalqni ozodlikka eltuvchi yo'l bu – xalqni ma'rifatli qilish deb bildi. Ular xalqni

ma'rifatli qilmasdan turib, mustaqillikni qo'lga kiritib bo'lmaydi, deb hisoblaganlar. Ziyolilar xalq orasida ilg'or g'oyalarni tarqatishda maorif tizimini asosiy vosita deb bildilar. O'lka milliy ziyolilarining jamiyatni yangilashga va isloh etishga qaratilgan harakati jadidchilik nomi bilan maydonga chiqdi.

### **Muhokama:**

Qrim-tatar ma'rifatparvari bo'lgan Ismoil G'aspirali butun turkiy xalqlar o'rtasida yoyilgan jadidchilik harakatining asoschisi sanaladi. U diniy va dunyoviy bilimlarni chuqur egallab, jahon taraqqiyoti bilan yaqindan tanishgan, bir nechta xorijiy tillarni, turli xalqlarning madaniyatini o'rgangan edi. O'zi egallagan bilimlar yordamida Sharq va G'arb dunyosini taqqoslab, turkiy xalqlarning taraqqiyotga erishish yo'llarini izlaydi. Ismoil G'aspirali 1884-yilda Qrimdagi Boqchasaroyda birinchi jadid maktabiga asos soldi. U o'zi tuzgan ta'lim dasturi yordamida darslik tayyorladi.

O'rta Osiyo jadidlari ma'rifatparvarlik yo'lida Qrim ziyolilari tajribalarini o'rganish bilan birga boshqa mamlakatlardagi taraqqiyparvarlarning ilg'or fikrlardan ham foydalandilar. O'rta Osiyo taraqqiyparvarlik harakati ishtirokchilarining yoshi boshqa davlatlar jadid vakillaridan ajralib turgan. 1910-yilda ularning eng yoshi Abdulhamid Cho'lpon – 13 yoshda, eng kattasi Mahmudxo'ja Behbudiy – 36 yoshda bo'lgan. Taraqqiyparvarlik harakatining rivojlanishi ikki bosqichda bo'ldi. Birinchi bosqichda ma'rifatparvarlikdan boshlangan bu harakat 1917-yilga kelib o'zining ikkinchi bosqichi – siyosiy ko'rinishdagi harakatga aylandi.

### **Xulosa:**

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Turkistonda ma'rifatparvarlik harakatining yoyilishi bu vaqtdagi mustamlakachi hukumat va uning amaldorlari, shuningdek mahalliy mutaassib va johil ruhoniylarning qarshiligiga uchradi. Shunga qaramay, jadidlar matbuot, noshirlik va teatr sohalarida faoliyatlarini davom ettirdilar. 1898-yilda Qo'qon shahrida Salohiddin domla ikkinchi jadid

maktabini ochdi. 1899-yili Andijonda Shamsiddin domla va Toshkentda Mannon qori jadid maktabini ochib, ko‘plab o‘quvchilarning yangi usulda ta’lim olishlariga erishdilar.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Tulenov J. Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka. T. «Sharq». 2000.
2. Achilov B. Jadidlarning maqsadi, haqiqiy yutuqlari va zamonaviylik. Tarjumon.uz, 2019.
3. Qosimov B. Milliy uyg‘onish – jasorat, marifat, fidoiylik. Toshkent. “Ma’naviyat” 2002.
4. B.Xasanov. N.Karimov. Jadid ma’rifatparvarlik xarakatining g‘oyaviy asoslari. “Toshkent islom unversiteti” Toshkent 2016.